

VATANIMIZDA INFORMATIKA FANINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ro'zibekova Gulmira Abdumutalovna
Baliqchi tuman 2-son kasb-hunar maktabi
Andijon viloyati Baliqchi tuman
Informatika fani: 941097429

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fanining dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, O'zbekistonda ushbu fanning rivojlanishi bo'yicha muammolar va ularni yechimimni yechishga doir ilmiy nazariy taklif va tavsiyalar tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, Informatika, Kibernetika, Fan va texnika.

Insoniyat o'zining rivojlanishi tarixi mobaynida moddiy quvvat va axborotlarni o'zlashtirib kelgan. Bu rivojlanishning butun bir davrlari shu bosqichning ilg'or texnologiyasi nomi bilan atalgan. Masalan: "tosh asr" – mehnat quroli yasash uchun toshga ishlov berish texnologiyasini egallash bochiqichi, "kitob chop etish asri" - axborotni tarqatishni yangi usulini o'zlashtirish bosqichi, "elektr asri" - quvvatning yangi turlarini o'zlashtirish bosqichi shular jumlasidandir. Bundan 20-30 yillar ilgari "atom asri" boshlandi deyilgan bo'lsa, xozirgi kunda "EXM asri" deb aytiladi. Biz yangi "Informatika" fanining o'rgana boshlaymiz. "Informatika fanining kelib chiqishi, uning uch tarkibiy qismi algoritm, dastur va xisoblash vositalarini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Kishilik jamiyatida xisoblash ishlari (podadagi mollar soni, ov natijasi, er o'lchash va hk.) boshlangan davridayok qo'shish, ayirish kabi arifmetik amallardan, keyinchalik esa ko'paytirish va bo'lishdan foydalanganlar. Bu amallar usha davrga taaluqli bo'lgan algoritmlar asosida bajarilgan. Xisoblash ishlari uchun zarur bo'lgan axborot xajmini oshishi, qo'lning barmoqlaridan farqli o'laroq yangi turdagi xisoblash vositalarini yaratilishiga sabab bo'ladi. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida fanlarning yangi yo'nalishlari va yangi fanlar paydo bo'lishi ishlov berish uchun zurur bo'lgan axborot xajmini keskin oshib ketishiga olib keladi. XX asr o'rtalarida yaratilgan axborotlarni avtomatik ishlov qurilmasi- elektron xisoblash mashinalari (EXM) lar katta xajmdagi axborotlarni saqlab turish va katta tezlikda ishlov berish imkoniyatlarini tug'diradi. Buning natijasida esa murakkab ilmiy – texnik masalalrni (atom energetikasi, kosmosni o'zlashtirish, ob - xavoni bashorati, ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqarish, avtomatlashtirish loyixalash va xk.) echish ularni taxlil qilish mumkin bo'lib koldi. Demak qo'yilgan masalani to'g'ri echib olish uchun zarur bilim va

maxorat (algoritm va usul), EXM tushinadigan dastur va EXM ning uzi bir butuning uch, biz organishimiz kerak fanning tarkibidir.

Informatika axborotlarni EXM yordamida tasvirlash, saqlab turish, uzatish va ishlov berish usullarini o'rganadigan fandır. EXMlarni ishlab chiqish va undan foydalanish sohasida katta yutuqlarga erishilgan olim V.M.Glushkov ta'biri bilan aytsak: Yangi asr boshida texnik jixatdan rivojlangan mamlakatlarda aksariyat axborot EXM xotirasida joylashgan bo'ladi. XXI asr boshlarida ana shu axborotlardan foydalanishni bilmagan kishi, XX asr boshida o'qish va yozishni bilmagan odamga o'xshab qoladi. Bundan kelib chiqqan xolda "Informatika" fanini o'rganish ikkinchi savodxonlik bilan tengdir.

Informatika fanini o'rganish vaqtida uni bir tomonlama emas, boshqa sohalar va fanlar bilan ham bog'liqlik taraflarini o'rganishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Informatika fani, ta'lim tizimiga kiritilgandan buyon uning yo'nalishlarini o'rganishga katta etibor qaratilib kelmoqda, shunga qaramay bu sohani mukammal egal masalasi to'liq hal etilmagan. Albatta o'quvchida informatsiya va axborotni olishda informatika fanining maktab o'quv rejasiga kiritilgan soatlari kamlik qiladi. Bu borada informatika fanini o'rganish vaqtida qo'shimcha darslar tshkil etish bilan birgalikda, kompyuter to'garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kompyuter to'garaklarining tashkil etishning bir necha omillari mavjud bo'lib bular quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'lim tizimida ish olib borayotgan bazi bir maktablar kompyuterlar bilan to'liq ta'minlanmagan.

2. Ta'minlangan maktablarda bu jarayon ancha yuqorilab ketgan.

Shu ikki jarayonni hisobga olgan holda informatika fani o'qituvchisi kompyuter mavjud bo'lmagan joyda, kompyuter mavjud maktablarga ekskursiyalar tashkil etishni amalga oshirishi lozim bo'ladi bu ham o'quvchilarning kompyuter tehnologiyasini o'rganishlariga imkoniyat yaratib beradi. Bundan tashqari maktab jamoasi bilan kelishgan holda, darsdan bo'sh vaqtlarda haftada ikki marotaba, informatika fanidan to'garaklar tashkil etilsa bu jarayon ham o'quvchilarda fanni mukammal bilishlariga yordam beradi. Informatika fanidan to'garaklar qanday tashkil etiladi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: To'garaklarni tashkil etishdan asosiy maqsad sinflardagi iqtidorli o'quvchilarni tanlab olib ularni qo'shimcha darslarga jalb etish bo'lsa, ikkinchidan sinfdagi past o'zlashtiradigan o'quvchilarning ham shu fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda, fanni chuqur o'rganishiga olib kelish mumkin.

Informatika fanidan to'garaklar tashkil etish fan o'qituvchisidan chuqur bilim va ko'nikmani ta'lab etadi.

Birinchiidan tashkil etilayotgan, to'garakning ish rejasi bilan o'quvchilarni tanishtirib o'tish va bajariladigan ishlarning dars jarayonidan murakkabligi bilan ajralib turishligini aytish lozim.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Vatanimizda informatika fani hozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan fanlardan bo'lib, hozirda deyarli barcha sohalarga kirib kelmoqda.

Bank sohasida ham internetdan va kompyuterdan foydalanish, mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish borasida ishlar olib borilmoqda. Bu qulayliklarga Internet Banking, Mobil Banking, SMS Banking xizmatlarini misol qilib olishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki bizning mamlakatimizda ham internet jadal rivojlanib bormoqda. Demak, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish ish samaradorligini va sifatini oshiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kurs ishlaridan asosiy maqsad: ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llashdan iborat. Kurs ishlarining talaba uchun ahamiyatli tomoni shundaki: ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning qo'yilish jarayonidan boshlab uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish, zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlashga imkon beradi. Kurs ishini bajarishda talaba o'z imkoniyatidan kelib chiqib, o'zi xohlagan tarzda dasturlar bog'lamini tuzishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Wayne Wolf. Computers as Components, Second Edition: Principles of Embedded Computing System Design 2nd Edition, Morgan Kaufmann, USA, 2008
2. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and Digital technologies big issues and critical questions, Cambridge University Press, Australia, 2015.
3. Bosova L.L. Zanimatelnno,e zadachi po informatike/ L.L. Bosova, A.Yu. Bosova, Yu.G. Kolomenskaya. – M.: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2016.
4. Qosimova, Nilufar. "5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH METODIKASI." Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot 1.19 (2022): 14-17.
5. Nilufar, Kasimova. "IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY." Open Access Repository 9.11 (2022): 88-92.
6. Qosimova, Nilufar. "IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY." Scienceweb academic papers collection (2022).
7. Kasimova, Nilufar Muratjon Kizi. "Representatives of the Kokan School of Coppersmithing, Glorifying the National Craft." RegiINTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT 4.11 (2022): 86-90.
8. Nilufarkhan, Q., & Dildorakhan, A. (2022, May). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE HISTORY OF APPLIED ARTS OF UZBEKISTAN. In E Conference Zone (pp. 12-13).
9. Rahimberdiyev, Abdulaziz, and Nilufar Qosimova. "KANDAKOR USTA, YORQINJON AXMADALIEVNING "IQTIDOR MARKAZI" DAGI FAOLIYATI." Development of pedagogical technologies in modern sciences 2.2 (2023): 36-41.
10. Solijon o'g'li, Qosimov Barkamol. "CARPENTRY SCHOOLS-APPLIED ART FOUNDATION OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 945-949.